<i>Xojiakbarova Dildora Abdug'afforovna</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish texnologiyalari.....	586
<i>Sodiqova Shoista Akbarovna, Lutfullayeva Iroda Abduvahob qizi</i>	
Til ta'limining hozirgi holati.....	590
<i>Kushkarbekova Marjan Usenovna</i>	
Talabalarning ijodiy rivojlanishida kretivlikning asosiy yo'nalishlari	593
<i>Alimova Gulchehra Qobilovna</i>	
Xorijiy tillarni o'rganishda yozma nutqning ahamiyati.....	596
<i>Safarova M. A.</i>	
Qoraqalpoq sinflarda o'zbek tili fanini o'qitishning lingvodidaktik asoslari.....	600
<i>Venera Allashova Tanirberdievna</i>	
Интеграция искусственного интеллекта в образование: польза или вред.....	602
<i>Karimbayev Atabek Merdanovich</i>	
Tibbiy kimyo darslarida talabalarning klinik tafakkurini rivojlantirish usullari	606
<i>Xolmurodova D. K., Safarova N. S.</i>	
Intellektual avlod – sog'lom jamiyat poydevori: tibbiyot talabalarining o'quv jarayonida kommunikativ kompetentligiga ta'sir etuvchi psixologik omillar.....	610
<i>Tursunbekova Nozima</i>	
Sportning voleybol turi bo'yicha talabalar o'rtasida musobaqalar tashkil etish va o'tkazishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	613
<i>Roziqov Normurod Elmonovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	618
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida yordamga muhtoj bolalar integratsiyasi va korreksiyasi.....	622
<i>Olimova Nodirabegim Ibroximjon qizi, Sulaymonova Shahnoza Alisher qizi</i>	
Sportning gandbol turi bo'yicha talabalar o'rtasida musobaqalar tashkil etish va o'tkazish texnologiyalarini takomillashtirish	626
<i>Berdiyev Jamshid Baxriddinovich</i>	
18–21 yoshdagi talaba futbolchilarning musobaqa faoliyati jarayonida hujum harakatlarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari	631
<i>Djemilov Temur Rasimovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yin vositalari orqali sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar samaradorligining ahamiyati.....	636
<i>Eshpo'latova Dilnoza Mamaniyoz qizi</i>	
Ota-ona bilan munosabatlarning maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga ta'siri.....	641
<i>Izaitullayeva Lazokat Eshimboyevna</i>	
Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorligini oshirishda kompleks mashg'ulot tizimining samaradorligi.....	646
<i>Zaripova Farida Abdullayevna, Kamoliddinov Sharif Kamoliddin o'g'li</i>	
Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida sport gimnastikasi mashg'ulotlarini rejalashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari.....	650
<i>Mirzayev Dilshod Xamidovich</i>	
Mahalla – “jonli muzey”: 6–7 yoshli bolalarda milliy g'ururni lokal identifikatsiya orqali kuzatish modeli.....	654
<i>Omondavlatova Diyora Otabekovna</i>	
Yengil dizatriyalı bolalarda nutqning bo'g'in tuzilishi va uning shakllanish xususiyatlari.....	658
<i>Pardayeva Muxlisa Furqat qizi</i>	
Ochilmagan bo'z qalblar hazor.....	662
<i>Eshpulatova Saodat Maxmatovna</i>	



Speaking Fluency Development Based on CEFR Linguistic.....	665
Abdullayeva Charos Farkhodovna	
Integrating Visual-Based Activities in English Lessons for Primary School Pupils	670
Ataullayev Fazliddin	
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligiga ta'siri	674
Bovanova Umida Abdurahobovna, Ashurova Dildora Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli	679
Bovanova Umida Abdurahobovna, Radjabova Gulchexra Xalbayevna	
Lotin tilini o'qitishda metodlarning qo'llanilishi va uning ahamiyati	683
Eshmurodova Shirin Oybekovna	
Nutqiy kompetensiyaning integratsion o'qitishda yangi metodlari va usullari	686
Fayzullayev Sarvar Ibrohim o'g'li	
Talabalarda affilativ motivatsiyani rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va komponentlari	689
Omonova Nilufar Omon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim samaradorligini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning o'rni	694
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeovich, Qodirova Sarvinoz Bahodir qizi	
Tikuv texnologiyalari asosida o'quvchilarning amaliy topshiriqlar bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish	698
Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna	
Bo'lajak muhandislarning xorijiy til bilish ko'nikmalarini rivojlantirishda individual va differensial yondashuvlar uyg'unligi	702
Qurbonova Nafisa Saidjonovna	
Tárbiya párin oqítw arqalı oqíwshlardín kreativ qábiletin rawajlandırıw.....	706
Reymova Gulaim	
Mirishkor toponimlarining leksik-semantik xususiyatlari	710
Ro'ziyeva Hilola Fayzulla qizi	
Taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish metodikasi	714
Saydaxmadov A'zamxon Valixonovich, Qosimova Nargizaxon Rustamxon qizi	
The Role of Music in Human Spiritual Development and Educational Significance.....	717
Shokirkhonov Bakhtiyorxon Botirkhonovich	
Boshlang'ich ta'limda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning nazariy metodologik asoslari.....	722
Sayfedinova Dildora Ikramiddinova	
Gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan o'quvchilar uchun gosptal maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etish	726
Isamuxamedova Dildora Raxmatillayevna, Qayumova Sabrina To'liqin qizi	
Neologizmlar – badiiy matnda uslubiy vosita sifatida	730
Ibragimova Shoir Normuminovna	
Optimisation of Technical and Physical Potential in the Implementation of the Rotational Method of Pushing the Core.....	733
Tajimbetov Anvar Tengelbayevich	
Magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish – kasbiy faoliyatda o'z-o'zini shakllantirish omili sifatida.....	736
Turmatov Jaloliddin Raxmatullayevich	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish modeli	743
Usmonova Kamola Erkinovna	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ijtimoiy lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	749
X. A. Suyunova	
Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning o'rni	752
Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna	
Motivatsiya – inson faoliyatini harakatga keltiruvchi psixologik omil sifatida	756
Yo'ldoshev Javlon Ablanazar o'g'li	

Цифровые технологии и искусственный интеллект в обучении иностранным языкам: теоретико-методологический анализ	760
<i>Абидова М. И., Абидова Д. М.</i>	
Сюжетно-ролевая игра как способ психоэмоционального развития детей дошкольного возраста, находящихся на длительном лечении.....	764
<i>Амитова Майисия Рахмателлаевна</i>	
Эффективные приемы презентации лексики на уроках иностранного языка	767
<i>Гилязиева Насиба Михайловна</i>	
Речевые действия в методике формирования коммуникативной компетенции при обучении РКИ...	770
<i>Ислямова Сония Юнусовна</i>	
Трансформация ценностей, связанных с физической активностью, у представителей разных поколений: результаты современных исследований	779
<i>У. Ш. Салимов</i>	

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTORLARINING AXBOROT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI

Xalilayev Batirjon Taxirovich

Toshkent viloyati Pedagogik mahorat markazi,
Matematika fani katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda axborot kompetensiyasi tushunchasi, uning tarkibiy qismlari, malaka oshirish tizimidagi o'rni hamda direktorlarning kasbiy faoliyatida ushbu kompetensiyani rivojlantirish zarurati asoslab beriladi. Shuningdek, axborot kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv mazmunini takomillashtirish, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish, innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, individual yondashuvni ta'minlash hamda motivatsion muhitni shakllantirish kabi pedagogik shart-sharoitlar tizimli ravishda tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim muassasalari, axborot kompetensiyasi, pedagogik shart-sharoitlar, innovatsion texnologiyalar, kasbiy rivojlanish, individual yondashuv.

Abstract: This article presents a scientific and theoretical analysis of the pedagogical conditions for developing the information competence of directors of preschool educational institutions in the process of professional development. The study examines the concept of information competence, its structural components, its role within professional development systems, and substantiates the necessity of enhancing this competence in managerial practice. Particular attention is paid to pedagogical conditions such as improving educational content, creating a practice-oriented learning environment, effectively applying innovative pedagogical technologies, ensuring individualized approaches, and fostering a supportive motivational environment.

Key words: preschool educational institutions, information competence, pedagogical conditions, innovative technologies, professional development, individual approach.

Аннотация: В статье представлен научно-теоретический анализ педагогических условий развития информационной компетентности руководителей дошкольных образовательных учреждений в процессе повышения квалификации. Рассматривается сущность понятия информационной компетентности, ее структурные компоненты, роль в системе повышения квалификации, а также обосновывается необходимость ее развития в профессиональной деятельности руководителей. Особое внимание уделяется таким педагогическим условиям, как совершенствование содержания обучения, создание практико-ориентированной образовательной среды, эффективное использование инновационных педагогических технологий, обеспечение индивидуального подхода и формирование мотивационной поддержки.

Ключевые слова: дошкольные образовательные учреждения, информационная компетентность, педагогические условия, инновационные технологии, профессиональное развитие, индивидуальный подход.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish hamda ta'lim sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimi jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim bo'g'in sanalib, ushbu tizim faoliyatining samardorligi ko'p jihatdan maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy kompetensiyasi, ayniqsa, axborot kompetensiyasi darajasiga bog'liqdir.



Maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, ta'lim jarayonini raqamlashtirish, elektron hujjatlar aylanishini joriy etish hamda davlat axborot tizimlari orqali boshqaruvni tashkil etish maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlaridan yuqori darajadagi axborot savodxonligi va axborot kompetensiyasini talab etmoqda. Shu bilan birga, ayrim maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarida axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha zarur ko'nikmalarning yetarli darajada shakllanmaganligi, raqamli boshqaruv tizimlaridan samarali foydalanishda muayyan qiyinchiliklarning mavjudligi kuzatilmoqda.

Mazkur holat maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish masalasini pedagogik nuqtayi nazardan yanada kengroq va chuqurroq o'rganishni taqozo etadi. Shu bois, hozirgi sharoitda malaka oshirish tizimi direktorlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta o'zlashtirishlari hamda kasbiy faoliyatida axborotdan samarali foydalanish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish masalalari O'zbekiston pedagogika fanida dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini samarali tashkil etishda rahbarlarning kasbiy va axborot kompetensiyasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, A.V. Shin tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik asoslari chuqur tahlil qilinib, rahbar kadrlarning boshqaruv faoliyatida zamonaviy yondashuvlar va kompetensiyalarning ahamiyati asoslab berilgan.

Raqamlashtirish sharoitida ta'lim xodimlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish masalalari N.Sh. Mavlonov tadqiqotlarida yetakchi o'rin egallaydi. Muallif maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining axborot kompetentligini rivojlantirish jarayonida raqamli texnologiyalar, elektron resurslar va axborot muhitining pedagogik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan yoritadi. Ushbu yondashuv rahbar kadrlar, jumladan, direktorlar axborot kompetensiyasini rivojlantirish uchun ham metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Axborot texnologiyalaridan kasbiy faoliyatda foydalanish masalalari Mavlonov N.Sh., Xalilayev B.T., Rabbimova M.M. va Nematova Z.F. tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanmada keng yoritilgan. Unda axborot texnologiyalarining ta'lim va boshqaruv jarayonidagi o'rni, ulardan samarali foydalanish yo'llari hamda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi ahamiyati bayon etilgan. Mazkur asar maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini shakllantirishda amaliy ahamiyatga ega.

Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalalari R. To'xtasinov va A. Abduqodirov tadqiqotlarida nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Mualliflar ta'lim boshqaruvida AKTd an foydalanish, raqamli resurslar bilan ishlash hamda ta'lim sifatini oshirishda axborot texnologiyalarining rolini asoslab beradi. Ushbu yondashuv maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot savodxonligini oshirish zaruratini ko'rsatadi.

Pedagogik kompetensiya va kasbiy mahorat masalalari N.A. Muslimov, M.H. Usmonboyeva hamda N.S. Sayidahmedov ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida pedagogik kompetensiyaning mazmuni, tarkibiy qismlari va uni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ochib berilgan. Ushbu ilmiy qarashlar maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida pedagogik va boshqaruv yondashuvlarini takomillashtirish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini o'rganishda kompleks ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot ma'lumotlari ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish, malaka oshirish jarayonida ishtirok etayotgan direktorlar faoliyatini kuzatish hamda so'rovnoma va suhbatlar orqali yig'ildi. Empirik ma'lumotlar maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi, elektron boshqaruv tizimlariga munosabati va kasbiy ehtiyojlarini aniqlashga yo'naltirildi. Olingan ma'lumotlar taqqoslash, guruhlash va umumlashtirish metodlari asosida tahlil qilindi. Shuningdek, tahlil jarayonida miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligi aniqlanib, xulosalar chiqarildi. Ushbu metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchligi va ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Axborot kompetensiyasi – shaxsning axborotni izlash, tanlash, qayta ishlash, tahlil qilish, saqlash va undan samarali foydalanish qobiliyati, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalaridan kasbiy faoliyatda ongli va maqsadga muvofiq foydalanishidir. Axborot kompetensiyasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari uchun nafaqat texnik ko'nikmalar majmuini, balki zarur va ishonchli ma'lumotni aniqlash, boshqaruv qarorlarini qabul

qilish jarayonida axborotdan foydalanish, elektron hujjatlar bilan ishlash, raqamli ta'lim platformalarini boshqarish, pedagoglar va ota-onalar bilan samarali axborot almashinuvi hamda axborot xavfsizligini ta'minlash kabi jihatlarni ham o'z ichiga oladi.

Demak, axborot kompetensiyasini bir nechta asosiy tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

1. Axborotni qidirish qobiliyati – zarur ma'lumotlarni topish va to'plash, internet tarmoqlari, kutubxonalar, ma'lumotlar bazalari va boshqa axborot manbalaridan samarali foydalanish;
2. Axborotni tahlil qilish va baholash – ma'lumotlarning ishonchiligi va dolzarbligini aniqlash, axborotni tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilish;
3. Axborotdan samarali foydalanish – olingan ma'lumotlarni amaliy faoliyatda qo'llash, muammolarni hal etish, qarorlar qabul qilish, ta'lim va ilmiy faoliyatda foydalanish;
4. Axborot kommunikatsiyasi va xavfsizligi – axborotni boshqalarga tushunarli va samarali tarzda yetkazish, intellektual mulk huquqlarini hurmat qilish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish hamda axborot xavfsizligi talablariga rioya etish.

Hozirgi davrda ayrim maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarida axborot kompetensiyasi, ya'ni elektron hujjatlar aylanishi, raqamli hisobotlar, onlayn platformalar bilan ishlash hamda masofaviy boshqaruv sohalarida qo'shimcha bilim va ko'nikmalarga ehtiyoj mavjudligi kuzatilmoqda. Zamonaviy rahbar esa pedagogik va tashkiliy kompetensiyalarni rivojlantirish bilan bir qatorda ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va metodikalarni bilishi, pedagogik jamoani samarali boshqarishi, motivatsiya berishi va ta'lim sifatini nazorat qilish ko'nikmalarini muntazam ravishda takomillashtirib borishi lozim.

Doimiy va tizimli ravishda tashkil etilgan malaka oshirish jarayoni, avvalo, direktorlarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, ularni yangi g'oyalar va zamonaviy metodik yondashuvlar bilan tanishtiradi hamda kasbiy motivatsiyasini kuchaytiradi. Shu sababli malaka oshirish tizimi maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy rivojlanishida yetakchi o'rin tutadi. Ushbu tizim yangi bilim va ko'nikmalarni egallash, zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini o'rganish va innovatsion tajribalarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini yaratadi.

Malaka oshirish – maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining hamda boshqaruv xodimlarining kasbiy bilim, ko'nikma va boshqaruv kompetensiyalarini zamonaviy ta'lim talablariga muvofiq ravishda oshirish, yangilash va amaliy faoliyatga tatbiq etish jarayonidir. Ushbu jarayon:

- muassasa faoliyatini samarali boshqarishga tayyorlaydi;
- rahbarlik salohiyatini mustahkamlaydi;
- pedagogik va menejerlik yondashuvlarini chuqurlashtiradi.
- Malaka oshirish kurslarining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:
- ta'lim menejmenti va boshqaruv strategiyalari;
- innovatsion pedagogik yondashuvlar;
- zamonaviy ta'lim texnologiyalari;
- jamoani boshqarish va yetakchilik ko'nikmalari.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining malakasi oshirilishi natijasida ta'lim jarayoni sifatli rejalashtiriladi va samarali boshqariladi, muassasa faoliyati zamonaviy bilimlar asosida tashkil etiladi, strategik rivojlanish yo'nalishlari belgilanadi, jamoani boshqarish hamda innovatsiyalarni joriy etish ko'nikmalari rivojlanadi. Bu esa, o'z navbatida, muassasaning uzoq muddatli rivojlanish rejasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etib, bolalar uchun sifatli maktabgacha ta'limni ta'minlashga xizmat qiladi.

Direktor o'z jamoasining professional rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydi, ularni muvofiqlashtiradi va pedagoglardan yuqori natijalarga erishishni talab etishga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim sohasida malaka oshirish jarayonini tashkil etish uchun maxsus muassasalar faoliyat yuritadi. Jumladan, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malaka oshirish instituti direktorlarning boshqaruv salohiyatini oshirishga xizmat qiladi hamda turli kurslar va sertifikatlash dasturlarini amalga oshiradi. Shuningdek, 2025-yildan boshlab maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlariga menejerlik sertifikati joriy etilib, ushbu sertifikat asosida moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini qo'llash belgilandi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish tizimli va ilmiy jihatdan asoslangan pedagogik yondashuvni talab etadi. Maqsadga yo'naltirilgan o'quv mazmuni, amaliyotga asoslangan ta'lim, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, individual yondashuv hamda motivatsion muhit axborot kompetensiyasini rivojlantirishning asosiy pedagogik shart-sharoitlari hisoblanadi. Mazkur shart-sharoitlarning kompleks va izchil amalga oshirilishi maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyatini takomillashtirishga, shuningdek, maktabgacha ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Shin A.V. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning tashkiliy-pedagogik asoslari. Ped. fan. doktori dis. avtoreferati. – Toshkent, 2022.
3. Mavlonov N.Sh. Raqamlashtirish muhitida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining axborot kompetentligini rivojlantirish. Ped. fan. falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2023.
4. Mavlonov N.Sh., Xalilayev B.T., Rabbimova M.M., Nematova Z.F. Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2025.
5. To'xtasinov R., Abduqodirov A. Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2019.
6. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H. Pedagogik kompetensiya va kasbiy mahorat asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
7. Sayidahmedov N.S. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2017.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.